

**TURLI JUFTLASH VARIANTIDAN OLINGAN QORAQALPOQ SUR  
QORAKO‘L QO‘ZILARIDA GULLARNING MUSTAHKAMLIGI VA GUL  
UZUNLIGI.**

**D.Yu.Abduzoirova**

*“Rangli qorako‘l qo‘ylari seleksiyasi” bo‘limi mudiri, q.x.f.d (PhD), k.i.x.  
Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti*

**S.R.Bazarov**

*Samarqand veterinariya medesinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
professori, q.x.f.d. e-mail: [uzkarakul@mail.ru](mailto:uzkarakul@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Maqolada qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘zilarida gullarning mustahkamligi va gul uzunligini o‘rganish borasidagi tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** qoraqalpoq suri, rangbaranglik, gul tiplari, gul uzunligi, gullarning mustahkamligi.

**Аннотация.** В статье приведены результаты исследований по изучению плотности и длины завитков у ягнят каракалпакского сура.

**Ключевые слова:** каракалпакский сур, расцветка, завитковые типы, длина завитка, плотность завитка.

Qo‘ychilik dunyo chorvachiligida o‘ziga xos o‘ringa ega soha hisoblanadi. Qorako‘lchilik esa qo‘ychilikning eng serdaromad tarmoqlaridan biridir. Qorako‘l qo‘ylaridan jun, sut, go‘sht mahsulotlari olinadi. Eng asosiysi, chidamliligi, cho‘l hududiga moslashganligi va tug‘ilganining birinchi kunidan boshlab qimmatbaho mahsulot-qorako‘l teri bera olishi ularning dunyoning ko‘p mamlakatlariga tarqalishiga sabab bo‘lgan. Hozirgi kunda ushbu zotdagi qo‘ylar dunyoning 40 dan ortiq davlatlarida urchitiladi. Bular orasida O‘zbekiston, Afg‘oniston, Janubiy Afrika respublikasi va Namibiya eng ko‘p qorako‘l mahsuloti etishtiradigan davlatlar hisoblanadi.

Qorako‘l qo‘ylari necha asrlar davomida cho‘lda yashashga moslashgan eng qimmatli cho‘l hayvonlaridan biri sifatida qardlanib kelinmoqda. O‘ta og‘ir sharoitlarda ham hayotining ilk kunlaridan mahsulot bera oladigan bu qo‘ylar cho‘l hududi aholisi uchun daromad manbai hamdir.

Mamlakatimizda ham qorako‘lchilikka e‘tibor azaldan kuchli, ayniqsa, Respublika mustaqillikka erishgandan keyin sohaga bo‘lgan qiziqish va e‘tibor yanada oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16-avgustdagi “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4420-sonli qarori, 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son

Farmoni hamda 2020 yil 2-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6059-sonli Farmonlarini ijrosini ta‘minlash maqsadida mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi va qorako‘lchilik sohalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bugungi kunda qorako‘l qo‘zilarini baholashda mavjud belgilarning deyarli barchasi yoki aksariyati miqdoriy belgilar bo‘lib, ularning shakllanishiga bir emas, balkim bir necha genlar ta‘sir ko‘rsatadi. Ularning ta‘sirida belgilar yuqori darajadagi o‘zgaruvchanlikka uchrab, ma‘lum bir yoki ko‘p belgilarning bir xilligiga va ularning turg‘unligiga erishish qiyin bo‘lib qoladi.

Bu borada qorako‘l qo‘ylarida ko‘p yillar davomida olib borilgan tadqiqot ishlarida [2,5] ularning biologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, etologiyasi, barra-teri xususiyatlari bo‘yicha farqlanishi aniqlangan.

Ko‘pchilik tadqiqotlarning (garchand ushbu tadqiqotlar qorako‘l qo‘ylari urchitiladigan turli ekologik hududlarda olib borilgan bo‘lsa ham) ko‘rsatishicha, qayd etilgan belgilarning avlodlarda namoyon bo‘lishi bo‘yicha yuqori natijalar kuzatilganki, bu ularga birinchi navbatda qo‘ylar genotipining kuchli ta‘sir ko‘rsatishidan dalolat beradi [1,3,4].

**Tadqiqot maqsadi.** Nurota zavod tipiga mansub qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘zilarida gul uzunligi va gul mustahkamligi taqsimlanishi bo‘yicha ko‘rsatkichlarini o‘rganish.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotlar Navoiy viloyati, Nurota tumani, “Istiqlol qorako‘l naslchilik” MChJ da olib borildi.

Gul uzunligi maxsus mmli chizg‘ichda o‘lchanib, gul mustahkamligi organoleptik usulda aniqlanib, foizda ifodalandi.

Tajribadan olingan raqamli ma‘lumotlar variatsion statistika usullarida qayta ishlandi [6] Har bir belgining o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi ( $X$ ), uning xatosi ( $S_x$ ), o‘zgaruvchanlik koeffitsienti ( $C_v$ ) hisoblandi.

**Tadqiqot natijalari.** Tovar qimmatligini ta‘minlovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bu-gul jingalakliklarining mustahkamligidir. Teriga birlamchi va keyingi ishlov berish sharoitida agarda teri gullari mustahkam bo‘lsa, gullari ochilib ketmaydi. Terida gullarning mustahkamligi qancha yuqori bo‘lsa, xom ashyo teri tayyor tovar ko‘rinishiga kelgandan keyin tovarning ko‘rinishini asl holicha saqlaydi. Gullarning mustahkamligini o‘rganishning asosiy sababi ham aynan shundadir. Olingan ma‘lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval.**

**Qo‘zilarida gullarning mustahkamligi, %**

№	Rangbarangliklar	n	Mustahkam	O‘rta	Bo‘sh
1	Shamchiroqgul	50	62,0±6,86	26,0±6,20	12,0±4,59
2	Po‘lati	50	47,0±7,05	29,0±6,41	24,0±6,03
3	O‘rikgul	50	46,3±7,04	34,1±6,70	19,6±5,61
4	Qamar	50	45,4±7,03	27,2±6,29	27,4±6,30

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, gul mustahkamligi eng yuqori bo'lgan ko'rsatkich ya'ni,  $62,0 \pm 6,86$  % shamchiroqgul rangbaranglikdagi qorako'l qo'zilariga to'g'ri keldi, eng past ko'rsatkich esa  $45,4 \pm 7,03$  % qamar rangbaranglikdagi qo'zilarida kuzatildi.

Gul mustahkamligi bo'shligi bo'yicha eng kam miqdor 12,0 % shamchiroqgul rangbaranglikdagi qo'zilarga tegishli bo'ldi.

Gullarning uzunligi gul ko'rsatkichlari orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgilardan hisoblanadi. Gullar qanchalik uzun bo'lsa, ushbu ko'rsatkich bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlari ham yuqori darajada namoyon bo'ladi. Gullarning uzun bo'lishi, ularning teri sathidagi hosil qiladigan naqshning aniq bo'lishini, sifatli gullar salmog'ini oshirishni ta'minlaydigan belgilardan biridir. Hozirda gullari uzun bo'lgan terilarga talab yuqori va gullari kalta bo'lgan terilarga nisbatan narxlarida ham ancha tafovvut bor.

M.F.Ivanov gul uzunligini eng muhim belgilardan biri deb hisoblab, zot ustida ish olib borganda uni hisobga olishni tavsiya etgan.

Har xil rangbaranglikdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'zilarining gul uzunligi bo'yicha olingan ma'lumotlar 2-jadvalda keltirib o'tilgan.

Gul uzunligining yuqoriligi bo'yicha  $45,1 \pm 7,03$  % bilan shamchiroqgul rangbaranglikdagi qo'zilar ustunlik qilmoqda.  $36,3 \pm 6,80$ % bilan o'rikgul rangbaranglikdagi qo'zilar keyingi o'rinni egalladi. Kalta gullar salmog'ining kamligi bo'yicha o'rikgul rangbaranglikdagi qo'zilar  $13,5 \pm 4,83$  % bilan eng yaxshi natijani ko'rsatdi. Kalta gullar qanchalik kam bo'lsa, bu seleksiya ishlari uchun shuncha yaxshi natija hisoblanadi.

## 2-jadval

### Qo'zilarida gullarining uzunligi, %

№	Rangbaranglik	n	Uzun	O'rta	Kalta
1	Shamchiroqgul	50	$45,1 \pm 7,03$	$37,4 \pm 6,84$	$17,5 \pm 5,37$
2	Po'lati	50	$35,5 \pm 6,76$	$46,4 \pm 7,05$	$18,1 \pm 5,44$
3	O'rikgul	50	$36,3 \pm 6,80$	$50,2 \pm 7,07$	$13,5 \pm 4,83$
4	Qamar	50	$34,9 \pm 6,74$	$47,6 \pm 7,06$	$17,5 \pm 5,37$

Tadqiqotlar natijasi bo'yicha shuni xulosa qilish mumkinki, rang-baranglikning namoyon bo'lishi jun tolasining tovlanishiga bog'liqdir. Jumladan, o'rik gul rangbarangligida surlik darajasi yaxshiroq namoyon bo'ladi. Umuman, qoraqalpoq surining terisi qora qo'ylarga nisbatan jun tolasining uzunligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq sur tipidagi qorako'lga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlar rangbaranglikning yaqqol ifodalanishi, tovlanishi va tekisligi bilan izohlanadi. Ular qo'zilarni bonitirovka qilish yoshi va muddatiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduzoirova D.Yu. Алимова М. Varieties of New Colours of Korakalpok Sur Korakul Sheep Teaching, Pedagogical and Modern Tendencies ISSN 2795 -546X. 56-58. Availableonline @ <https://procedia.online/index.php/philosophy>.
2. Abduzoirova D.Yu. Color Indicators and Flower Types of Korakalpok Sur Korakol Lambs Obtained From Different Mating Options. European Journal of Innovation Nonformal education (EJINE). Volume 4 Issue 3 march- 2024 ISSN 2795-8612. 417-419 p. [www.innovatus.es](http://www.innovatus.es)
3. Boboqulov N.A., Urimbetov A.A. Turli etologik tipdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining ayrim biologik xususiyatlari. Cho‘l yaylov chorvachiligining rivojlanish istiqbollari. Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining 90 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand 2020.
4. Gaziyeu A. Qorako‘l zotining irsiy salohiyatidan unumli foydalanish. //«Cho‘l-yaylov chorvachiligining ekologik asoslangan texnologiyalari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2009, 53-58 b.
5. Parmanova D.M., Xatamov A.X. Naslli qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘chqorlaridan olingan avlodlarining konstitutsiya tiplari. yaylov chorvachiligining rivojlanish istiqbollari. Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining 90 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand 2020.
6. Лакин Г.Ф. Биометрия.–М.: Высшая школа, 1968, -284 с. Изучение мясной продуктивности овец. Методические рекомендации. М. 1978. с-43.
7. Бошмонов, С., Ризаева, Д., & Сулаймонова, М. (2023). Qo ‘uchilikni hozirgi holati va uni rivojlantirish istiqbollari. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, 1(1), 96-100.
8. Suleymanova, M. K. (2023). Sifatli go ‘sht va go ‘sht mahsulotlari yetishtirishdagi ayrim tadbirlar. *agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 123-129.
9. Rizaeva, D. T. (2021). Qualitative indicators of wool cover of Black sheep in the conditions of a Sandy desert. *European Scholar Journal*, 2(9), 15-16.
10. <https://fitaudit.ru/food/148500>
11. Сулейманова, М. К., Ризаева, Д. Т., & Бошмонов, С. С. (2023). Влияние молочной продуктивности каракульских овец разной окраски на живой вес и прирост ягнят. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, 1(1), 127-129.
12. Ризаева, Д. Т., & Бахронов, О. Х. (2021). Качественные показатели шерстного покрова овец черной окраски в условиях песчаной пустыни.